
Akademik litseyda "Olima ayollar yurt ko'zgusi" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi!

Bugun Samarqand davlat chet tillari instituti xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi Xabiba Jabborova hamda akademik litsey xotin-qizlar masalalari bo'yicha direktor maslahatchisi Umida Mamatjonova hamkorligida "Olima ayol yurt ko'zgusi" mavzusida akademik litsey o'quvchilari uchun davra suhbatlari tashkil etildi.

Davra suhbatlari doirasida o'quvchilarga ilm olishning ayol kishining hayotidagi tutgan muhim o'rni va uning ijobiy natijalari haqida so'z yuritildi. Davra suhbatlari Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasini mudiri va o'qituvchilari mehmon bo'lib, o'quvchilarga o'zlarining tajribasi asosida, tegishli maslahatlarini berishdi.

